



www.isft.uz

“ISFT” ILMİY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

DAVLAT EKOLOGIK SIYOSATINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH AHAMIYATI

Tuxtamish Azizov<sup>1</sup>

<sup>1</sup>“International School of Finance Technology and Science” instituti, s.f.f.d.(PhD), dotsent

KALIT SOʻZLAR	ANNOTATSIYA
favqulodda ekologik vaziyat, atrof-muhit xafsizligi, ekologik inqiroz, ekologik siyosat, tabiiy ofat, texnogen xavf.	Mazkur maqolada ekologik xavfsizlikni taʼminlovchi institutsional asoslarni takomillashtirish orqali favqulodda ekologik vaziyatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha davlat siyosatini amalga oshirish tahlil etilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
экологическая чрезвычайная ситуация, экологическая безопасность, экологический кризис, экологическая политика, стихийное бедствие, техногенная опасность.	В статье анализируется реализация государственной политики по охране окружающей среды в чрезвычайных экологических ситуациях путем совершенствования институциональных основ, обеспечивающих экологическую безопасность.
KEY WORDS	ABSTRACT
environmental emergency, environmental safety, environmental crisis, environmental policy, natural disaster, technological hazard.	The article analyzes the implementation of state environmental protection policies in environmental emergencies by improving the institutional foundations that ensure environmental safety.

**Kirish.** Har qanday zamonaviy davlatning eng muhim vazifalaridan biri favqulodda hodisalar, urushlar yoki boshqa ziddiyatlar oqibatida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan tashqi va ichki tahdidlarda davlat va jamiyatning xavfsizligini taʼminlashdir. Har bir davlatda ekologik siyosatning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan ekologik inqiroz, ekologik siyosat kabilarning siyosiy jihatlarini tizimli anglash zarurati koʻndalang turadi. Ushbu maqsadlarda qonunchilik bazasini yaratish, davlat-boshqaruv tuzilmalari tashkil etish, nazoratni amalga oshirish, ogohlantirish, majburlash va javobgarlikka tortish tizimini oʻrnatish, aholi

oʻrtasida gʻoyaviy-tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish kabilarga asos boʻlib xizmat qiladigan siyosiy diskursni shakllantirish zarur. Bir soʻz bilan aytganda, davlat bunday vazifani bajarish uchun oʻz faoliyatining barcha siyosiy-huquqiy va tashkiliy shakllarini qoʻllaydi.

**Metodologiya.** Makolada tarixiy-mantiqiy, kontent tahlil, situativ tahlil, qiyosiy tahlil, ekstrapolyatsiya va funksional usul kabi metodlardan foydalanilgan.

**Natijalar.** Ekologik ofat mintaqalarini sogʻlomlashtirish va favqulodda ofatlarning oqibatlarini bartaraf etishning siyosiy jihatdan



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

tartibga solinishi davlat boshqaruv organlarining faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi.

Favqulodda ekologik vaziyatlarda va ularni bartaraf etish jarayonida o‘ziga xos siyosiy-tashkiliy vazifa yuzaga keladi. Uning optimal qamrovi dastlabki ekologik holatni monitoring qilish, bajarish va qayta tiklash barcha tuzilmalarni izchil takomillashtirishni nazarda tutadi.

Atrof-muhit xafsizligi va tabiatni asrash bo‘yicha faoliyatining barqarorligini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarga borib taqaladi: 1) ekologik jihatdan noqulay ahvolda qolgan hududlarda profilaktika ishlarini tashkil etish va boshqarish; 2) ekologik favqulodda vaziyatlarning ko‘lamini aniqlash va ularni bartaraf etish; 3) tabiiy ofat mintaqalarida konstitutsiyaviy maqbul huquqiy rejimni saqlash; 4) ekologik favqulodda holatga jalb qilingan fuqarolarga zaruriy majburiy-huquqiy yordam ko‘rsatish.

Boshqaruv subyektlari, ya‘ni siyosiy institutlar organlari favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda favqulodda hodisalarning oldini olish bosqichidagi faoliyatga alohida e‘tibor qaratishlari kerak. Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki kutilayotgan oqibatlarni tezkor ravishda bartaraf etishning eng maqbul choralarini ishlab chiqishlari zarur.

Atrof-muhit falokatlarining oldini olish bosqichida mas‘ul bo‘lgan va ularni zarur konstitutsiyaviy va ma‘muriy-huquqiy huquqlarga ega bo‘lgan holda hal qilishga vakolatli bo‘lgan davlat boshqaruvining barcha tuzilmalari turli darajalarda nazorat ostidagi hududning holatini monitoring qiladi, yetkazilishi mumkin bo‘lgan ekologik zararni tahlil qiladi, mintaqaning texnologik tuzilmalari faoliyatini muntazam boshqaradi.

Yaxshi tashkil etilmagan profilaktika tizimisiz hududiy-ma‘muriy va boshqaruv organlari

kutilmagan omillar bilan ajralib turadigan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qodir emas. Shuning uchun boshqaruv organlari o‘zgacha tarzda harakat qilishlari kerak. Demak, ularda malakali kasbiy tayyorgarlikni talab qiladigan nostandart operatsion yechimlarni ishlab chiqish va qabul qilish yo‘lida kerakli psixologik ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir.

Ekologik xavfsizlik choralarini profilaktikasi ekologik kuzatishlar doirasida huquqbuzarlik holatlarining ehtimoliy namoyon bo‘lishini aniqlash, ularning ijtimoiy tahdid darajasini belgilash, bunday huquqbuzarliklarning sonini kamaytirish yoki butunlay yo‘qotish choralarini amalga oshirish, tabiiy muhitni muhofaza qilishni targ‘ib qilish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabilarga borib taqaladi.

Favqulodda vaziyatlarda nazorat huquqi va favqulodda vakolatlarga ega bo‘lgan maxsus davlat boshqaruv organlarining faoliyati aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli halokatlarning oqibatlaridan muhofaza qilishga borib taqaladi. Buning uchun, eng avvalo, aholini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki allaqachon yuzaga kelgan favqulodda vaziyat to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish talab etiladi.

**Muhokama va xulosa.** Favqulodda ekologik vaziyatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlat siyosati ekologik xavfsizlikni ta‘minlaydigan institutsional asoslarini takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Ogohlantiruv ishlar boshqaruvini, odatda, davlatning siyosiy-xuquqiy institutlari orqali amalga oshiriladi. Davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun, siyosiy va huquqiy nuqtayi nazardan, mavjud bo‘lgan favqulodda ekologik vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha mas‘ul davlat organlarining vakolatiga siyosiy-huquqiy javobgarlikni o‘rnatish va kuchaytirish masalasini kiritish zarur. Favqulodda ekologik holatlar



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

standart emasligi sababli ularni bartaraf qilish uchun nostandart qarorlar qabul qilish samarali hisoblanadi. Ushbu holat alohida qonuniy vakolatni talab qilganligi tufayli, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini takomillashtirish kerak.

Ekologik qonunchilik va ekologik siyosatni takomillashtirish bo‘yicha asosiy xulosamiz

shundan iboratki, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning siyosiy chora, vosita va usullarini ishlab chiqish yo‘nalishida davlat ekologik siyosatining institutsional asoslari tizimini takomillashtirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Белокрылова Е.А. Правовое обеспечение экологической безопасности. – Ростов на Дону: Феникс, 2014.

2. Гуцин В.В. Чрезвычайное положение: административно-правовой аспект. – М., 1996.

3. Ефременко Д.В. Эколого-политические дискурсы. Возникновение и эволюция. М., 2006.

4. Жаворонкова Н.Г. Эколого-правовые проблемы обеспечения безопасности при чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера. – Автореф. дис... д-ра ю. н. – М., 2007.

5. Нугьманов Е.Е. Организационно-правовые формы управления и механизм природопользования и охраны окружающей природной среды / Гармонизация и развитие экологического законодательства России и Казахстана. – Астана-Москва, 2013. – С. 301-310.

6. Xolmuminov J.T. Chiqindilarga oid muammolarni ekologik-huquqiy tartibga solish asoslari // Экологический вестник Госкомприрода, 2017. – № 1. – В. 35-38.